



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
<b>2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva</b> XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
<b>3. Наргиза Абдурахманова</b> ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
<b>4. Шерзод Таштурсунович Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
<b>5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov</b> TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
<b>6. Наргиза Кенжаева</b> ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
<b>7. Lola Yusupovna Samatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
<b>8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov</b> O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
<b>9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi</b> AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
<b>10. Feruza Erkinovna Atajanova</b> OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
<b>11. Muborak Madrimovna Matyakubova</b> XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
<b>12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев</b> КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94



**Lola Yusupovna Samatova,**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
mustaqil tadqiqotchisi

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA

**For citation:** Lola Yu. Samatova. ABOUT THE SOVIET WOMEN’S PILOTS DURING WORLD WAR II. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082799>

### ANNOTATSIYA

Ikkinchi jahon urushida fashistlar ustidan g‘alaba qozonish uchun erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham frontda va front ortida beqiyos hissasini qo‘shgan. Ayniqsa, front chizig‘ida razvedkachi, o‘qchi, mergan, aloqachi yoxud tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda uchuvchi ayollarning dushmanga qarshi jangda mardonavor harakatlar olib borganligi yarim asrdan oshsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi jangda frontda jasoratni namoyon etgan va oddiy yog‘ochli uchish vositalarida tungi jangovar harakatlarini amalga oshirgan sovet uchuvchi ayollar bo‘linmasi to‘g‘risida bayon etiladi. Shuningdek, urush davomida ayollar ekipajining jangovar harakatlarni olib borish davomida ko‘rsatgan qahramonliklariga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** 588-aviatsiya polki, “Tungi jodugarlar”, ayol uchuvchilar, aviatsiya, jangovar parvozlar, U-2 biplani, bombalar, snaryadlar, Sovet Ittifoqi Qahramoni.

---

**Саматова Лола Юсуповна,**  
Узбекский государственный университет мировых языков,  
независимый исследователь

## О ПОДРАЗДЕЛЕНИИ СОВЕТСКИХ ЖЕНЩИН-ПИЛОТОВ ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

### АННОТАЦИЯ

Во время Второй мировой войны женщины, наряду с мужчинами, внесли неоценимый вклад в победу над нацистами на фронте и в тылу. В частности, героические действия женщин-пилотов в борьбе с врагом, наряду с разведчиками, стрелками, снайперами, связистами и медицинским персоналом, не утратили своего значения даже спустя более чем полвека. В этой статье будет рассказано о советском женском пилотском подразделении, проявившем мужество на фронте в борьбе с фашизмом во время Второй мировой войны и проводившем ночные боевые действия на простых деревянных летательных аппаратах. Также будет кратко затронута тема героических подвигов женских экипажей во время боевых действий в годы войны.

**Ключевые слова:** 588-й авиационный полк, «Ночные ведьмы», женщины-пилоты, авиация, боевые полёты, биплан У-2, бомбы, снаряды, Герой Советского Союза.

**Lola Yu. Samatova,**  
Uzbek State University of World Languages,  
Independent Researcher

## ABOUT THE UNIT OF SOVIET WOMEN PILOTS DURING WORLD WAR II

### ABSTRACT

During World War II, women, along with men, made an invaluable contribution to the victory over the Nazis, both at the front and in the rear. In particular, the heroic actions of female pilots in the fight against the enemy, alongside scouts, riflemen, snipers, signalmen, and medical personnel, remain significant even more than half a century later. This article will tell the story of the Soviet female pilot unit, which demonstrated courage on the front lines in the fight against fascism during World War II, conducting night combat operations in simple wooden aircraft. The heroic exploits of female crews during combat operations during the war will also be briefly touched upon.

**Index Terms:** 588th Aviation Regiment, “Night Witches”, female pilots, aviation, combat flights, U-2 biplane, bombs, shells, Hero of the Soviet Union.

### Dolzarbligi:

Ikkinchi jahon urushi mavzusi doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qoladi. Ayniqsa, urush davomida frontda va front ortidagi xotin-qizlarning qahramonliklari va jasorati bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini va kelgusi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllashtirishdagi tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi.

### Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Ushbu mavzuni yoritishda rus adabiyotlar, xususan ilmiy tadqiqot materiallari hamda Internet tarmog‘i ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, tahlil va natijalarni umumlashtirish kabi ilmiy metodlar qo‘llanildi.

Ikkinchi jahon urushida sovet uchuvchi ayollarning ishtiroki va ularning qahramonliklari asosan rus tarixiy adabiyotlari hamda urush qatnashchilari, ya’ni uchuvchi ayollarning tirikligida yozib qoldirgan xotira va esdaliklarida o‘z aksini topgan. Jumladan, uchuvchi, Sovet Ittifoqi Qahramoni M.P.Chechneva, tarix fanlari doktori, professor V.V.Cherepanov, sovet harbiy tarixchisi N.A.Kirsanov, V.S.Murmantsev, S.A.Alekseyevich, Z.N.Yankeva kabi taqdiqotchilar tomonidan bu mavzuning metodologik muammolari ochib berilgan va sovet ayollarning urushdagi ishtirokiga umumiy baho berilgan [12].

Xorijda ham sovet uchuvchi ayollar bo‘linmasi to‘g‘risida xorijlik tarixchilar, siyosatchilar va taqdiqotchilar, jumladan B.Liddel Gart, R.Stokuel, U.Cherschil, U.Shirer, G.Visman, J.P.Milanettlar tomonidan amalga oshirilgan bir qator ilmiy ishlar, tarixiy asarlar, ocherklar va romanlarda uchuvchi ayollarning taqdiri taqdiq etilgan holda ushbu mavzu har tomonlama va majmuaviy tarzda o‘rganib chiqilgan [13].

### Tadqiqot natijalari:

Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan darajada azob-uqubatlar, yo‘qotishlar va vayronagarchiliklar keltirgan. Bu urush jahonning yirik davlatlari tomonidan dunyoni iqtisodiy, siyosiy va hududiy hamda strategik jihatdan bo‘lib olish maqsadida olib borilgan. Bu qirg‘inbarot urushning tashabbuskori sifatida fashistlar Germaniyasi o‘zini yetarli darajada urush sharoitiga tayyorligini hisobga olib boshladi va asosiy janglar Gitler Germaniyasi hamd Sovet davlati hududida olib borilgan.

Bu vaqtda Vatan himoyasi uchun frontda erkaklar bilan teng ravishda 600 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etgan bo‘lib, ularning aksariyatini aloqachilar, tibbiyot xodimlari, merganlar tashkil etgan. Ammo ayollar orasida aviatsiya yo‘nalishidagi xizmatni tanlagan – uchuvchi,

shturman va texnik ayollar alohida ajralib turadi. Ayollar aviatsiya polki Sovet Ittifoqi Harbiy-havo kuchlarida noodatiy holat bo'lgan, lekin urush vaqtida Vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchi hisoblangan.

Ta'kidlash joizki, urush davrida ayollar nafaqat odatiy “erkaklar”ning aviatsiya bo'linmalarida jang olib borishgan, balki harbiy uchuvchilar va muhandislarga yuqori zarurat tufayli maxsus “ayollar” polkini tuzishga ham to'g'ri kelgan. I.Stalinning farmoyishi bilan 1941-yil 27-oktabrdan 1942-yil 23-maygacha uchuvchi mayor Marina Raskova rahbarligi ostida Engelsk aviatsiya uchuvchilar maktabi huzuridagi 122-aviaguruh tarkibida 3 ta ayollar aviapolklari tashkil etilgan [3]:

**586-qiruvchi-bombardimon aviapolk** (keyinchalik 73-gvardiya polkiga aylantirilgan) – Saratov, Stalingrad, Kurskda jang olib borgan. Mashhur uchuvchi ayollari V.Xomyakova (tungi vaqtda dushmanga qarshi bombardimon hujum qilgan birinchi uchuvchi ayol), L.V.Litvyak (Sovet Ittifoqi Qahramoni, 150 ta jangovar parvozlarni bajargan, shaxsan o'zi 6 ta va guruh tarkibida 6 ta dushman samolyotlarini urib tushirgan), Ye.V.Budanova (Rossiya Federatsiyasi Qahramoni, 266 ta jangovar parvozlarni amalga oshirgan, shaxsan o'zi 6 ta va guruh tarkibida 11 ta dushman samolyotlarini urib tushirgan);

**587-hujum-bombardimon aviapolk** (keyinchalik 125-gvardiya polkiga aylantirilgan): “Pe-2” rusumli samolyotda Leningrad va Belorusiyada jang olib borgan. Komandir – uchuvchi shturman, Sovet Ittifoqi Qahramoni, mayor Raskova Marina.

**588-tungi yengil bombardimon aviapolk** (keyinchalik 46-gvardiya polkiga aylantirilgan): mashhur “Tungi jodugarlar” bo'linmasi bo'lib, “Po-2” (U-2) rusumli samolyotda jang olib borgan. Komandir – “Aleksandr Nevskiy” ordeni sohibasi, Bershanskaya Yevdokiya Davidovna.

Ushbu bo'linmalarga mutaxassis qizlarni 2000 nafar talabgor xotin-qizlar orasidan shaxsan Marina Raskovaning o'zi 400 tasini Sovet Ittifoqi Harbiy havo kuchlariga saralab olgan va bu qizlarni 17-22 yoshlardagi Qizil Armiya Harbiy havo kuchlari, Fuqaro havo floti va Osoaviaxim (Mudofaa, aviatsiya va kimyoviy qurilishga yordam jamiyati)ning kursant qizlari, rus millatli ko'ngilli qizlari – oddiy tikuvchi, talaba, bolalar bog'chasi tarbiyachilari, maktab o'quvchilari tashkil etgan. Qizlarning maxsus tayyorgarligi Engelsk shahrida o'tkazilib, uch guruhga (uchuvchilar, shturmanlar va texniklar) bo'lingan holda qizlar kuniga 11 soatlab “Morze alifbosi”, saf va uchish tayyorgarligi mashg'ulotlarida qatnashgan, eskirib ketgan “Po-2” (U-2) biplanlarda shug'ullanishgan va kurslarni tugatib bo'lgach ularga harbiy unvonlar berilgan [2].

Yuqoridagi bo'linmalar orasida afsonaviy **588-tungi yengil bombardimon aviapolk** (588-TEBAP) shaxsiy tarkibi to'liq ayollardan iborat bo'lib, Ikkinchi jahon urushida sovet ayollarining oddiy “Po-2” samolyotlarida o'zining shovqinsiz tungi hujumlari bilan mashhur bo'linma hisoblangan. Mazkur aviapolk Janubiy frontning 218-aviadiviziyasining tarkibiga kiritilgan va urushning oxirigacha – 1945-yil 15-oktabrgacha faoliyat yuritgan [3].

Avvaliga nemislar bu ayollarning mahoratiga nisbatan ishonchsizlik munosabatini bildirishgan. Ammo vaqt o'tib, uchuvchi qizlarning yuqori kasbiy mahorati va cheksiz chidamliligini ko'rib, ularni **Nachthexen** – “**Tungi jodugarlar**” deb atashgan. Hattoki qizlarning nemis tilida “**Kaffeemühle**” – “**Kofe maydalagich**”, “**Nähmaschine**” – “**Tikuv mashinasi**” (motorning o'ziga xos tovushi sababli) degan nomlari ham rus va xorijiy adabiyotlarda qayd etilgan, ruslar esa qizlarni erkalatib “**Tungi qaldirg'ochlar**” hamda norasmiy “**Stalin lochinlari**” deb atashgan [1].

Polkda faqat ayollarning bo'lishiga sabab sifatida aviapolk boshqaruvida oddiy “U-2” samolyotning bo'lganligi hamda unda hattoki tajribasiz uchuvchi ham parvoz qila olishi, shuningdek, bunday samolyotni ta'mirlash oson bo'lganidan ayol texniklarni tayyorlash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

1942-yil 5-fevral kuni 588-TEBAP mustaqil bo'linma bo'lib shakllantirilgach, 23-maydan boshlab Janubiy front hududiga uchib ketgan. Bo'linma ixtiyorida 19 ta ekipaj (*42 nafar uchuvchi ayollardan iborat*) va 20 ta samolyot bo'lgan. 1943-yil fevralda 588-TEBAP Shimoliy Kavkaz mudofaasida jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarganligi uchun **46-gvardiya tungi yengil bombardimon aviatsiya polkiga** aylantirilgan hamda “Qizil Yulduz” va “3-darajali Suvorov”

ordenlari bilan taqdirlangan. Oktabr oyida esa 132-bombardimon diviziya tarkibiga kiritilib, Kuban va Tamanni ozod etish janglarida ko'rsatgan qahramonliklari uchun "Tamanskiy" nomi berilgan [10].

Ushbu afsonaviy polkning *asosiy vazifasi* tungi vaqtda dushman pozitsiyalarini bombardimon qilish, uning aloqa tizimlari va omborlarini yo'q qilish, shuningdek, dushmanga psixologik bosim ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Uchuvchi ayollar kichkina yog'och (faner), ikkita ochiq ketma-ket joylashgan kabinali "Polikarpov" yoki "Po-2" (*U-2 rusumli samolyot jangovar hisoblanmagan va o'quv maqsadlar uchun mo'ljallangan, maksimal tezligi esa 120 km/s*) rusumdagi biplanlarda turli xil ob-havo sharoitlarida parvoz qilishgan [8].

Samolyotda uchuvchi-bombardimonchilar juft bo'lib – uchuvchi va shturman bo'lib parvoz qilishgan, ulardan biri halok bo'lgan taqdirda ikkinchisi jangovar transportni aerodromgacha keltira olgan. Yengil samolyotlar faqat 2 ta kichkina bombani ko'tara olishi mumkinligi sababli bir kechada qizlar 10-18 marotabagacha parvozlarni amalga oshirishgan va 300-500 metr balandlikdan bombalarni tushirish orqali dushmanni qo'rquvga solishgan. Polkning o'ziga xos taktikasi – samolyotning dvigatelini o'chirish orqali nemislarning obyekti ustiga bildirmasdan uchib kelish va bombani tashlash hisoblangan [9].

Polkda jangovar samolyotlar soni 40-45 tani tashkil etgan, ekipajda TT pistoletidan (*Tulskiy Tokarev – ilk sovet armiyasi pistoleti, II jahon urushi vaqtida SSSR ofitserlarining asosiy shaxsiy quroli*) boshqa qurol va radioaloqa (*navigatsiya uchun sekundomer, xarita, yerdagi oriyentirlardan keng foydalanilgan*) vositalari, hatto aviabombalar uchun bo'lim ham bo'lmagan (*snaryadlar samolyotlarning "qorni" ostida maxsus bomba ushlagichlarda osiltirib qo'yilgan*). Uchuvchi qizlar radiopriyomnikdan foydalanmaganligi tufayli ularning samolyotlari dushmanning radiolokatorlarida ko'rinmasdi [4].

1944-yil o'rtalarigacha polk ekipaji parashyutlarsiz uchishgan va qizlar parashyutlar uchun mo'ljallangan joylarda ortiqcha 20 kg bombalarni yuklab olishni afzal ko'rishgan. Ammo snaryadlar zarbasidan samolyotlarning yonib, ekipajning to'liq alanga ichida qolishi tufayli qizlar parashyutni o'zlari bilan olishga majbur bo'lishgan va parashyut ularning harakatlarini qiyinlashtirar, ertalabgacha qizlarning yelka va orqa qismlari, bellarini og'ritardi [4].

588-TEBAP Kavkaz, Kuban, Qrim, Belorusiya, Polshani ozod etishda hamda Germaniya urushlarida faol ishtirok etib, jami 23 672 ta jangovar parvozlarni (havoda 28 676 soat yoki umumiy 1191 kun) amalga oshirishga erishgan. Parvozlari davomida jasur qizlar tomonidan 3 mingdan ortiq aviabombalar va 26 mingta yondiruvchi snaryadlarni tushirilishi natijasida nemislarning ko'p sonli texnikasi – 17 ta kesib o'tish yo'laklari, 9 ta temiryo'l eshelonlari, 2 ta temiryo'l bekatlari, 46 ta omborlar, 12 ta yoqilg'i sistemalar, 1 ta samolyot, 2 ta barja, 76 ta avtomobil, 86 ta o't ochish nuqtalari, 11 ta projektorlar yo'q qilingan, nishonlarda 811 ta yong'in va 1092 ta katta quvvatdagi portlashlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, qizlar samolyotlar orqali dushman qurshovida qolib ketgan sovet qo'shinlariga 155 ta qop o'q-dorilar, oziq-ovqat, dori vositalari va pochталarni ham yetkazib berishgan [8].

Qo'shimcha ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, polk qizlari xizmat o'tash vaqtida ma'lum qiyinchiliklarga ham duch kelgan. Misol uchun, 1943-yilga qadar ayollar harbiy xizmatga kirish vaqtida sochlarini kesishlariga, erkaklarning harbiy kiyimlarini va katta oyoq kiyimlarini kiyishlariga to'g'ri kelgan (*sabab o'sha vaqtda ayollarning harbiy kiyimlari hali ishlab chiqarilmagan. Keyinchalik esa yubkali bayramona harbiy kiyimlar joriy etilgan bo'lib, uni faqat tantanali tadbirlarda va rahbariyatning kelishi munosabati bilan kiyishgan*) [7].

Polkda erkaklar bo'lmaganligi sababli "ayollik ruhi" barcha narsalarda namoyon bo'lgan: kiyim-kechaklarning ozodaligi, turar joylarning tozaligi va shinamligi, bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish madaniyati, qo'pol va odobsiz so'zlarning ishlatilmasligi kabilar. Tungi parvozlari bo'lmagan qizlar kunduzgi vaqtda shaxmat o'ynashar, yaqinlariga xat yozishar yoki xatlarni o'qib o'tirishar, davra qurib qo'shiq kuylashar, to'qish ishlari bilan band bo'lishardi [5].

588-TEBAPning ilk shiori – **"Sen ayolsan va bu bilan faxrlanishing kerak"**. Bundan tashqari, polk qizlari o'zlari uchun hazilomuz qoidalarni ham o'ylab topishgan, jumladan "Faxrlan, sen ayolsan. Ayollarga yuqoridan qara", "Yaqin dugonangni yigitini yo'ldan urma", "Do'stingga

havas qilma (ayniqsa u naryadda bo'lsa)", "Sochingni kesma. Ayolligingni saqla", "Etiklaringni oyoq osti qilma. Baribir yangisini berishmaydi", "Saf bo'limini sevgin", "Yomon so'zlarni gapirma. O'zingni yo'qotma" [5].

Urush davomida sovet aviatsiyasida 588-TEBAP eng ko'p "Sovet Ittifoqi Qahramoni" oliy unvoniga sazovor bo'lgan ayollar bo'linmasi bo'lib qolgan. Polkning 1 nafar qozog'istonlik uchuvchi ayoli gvardiya katta leytenanti X.Dospanova (aloqa boshlig'i) **"Qozog'iston Respublikasi milliy qahramoni"** unvoni bilan hamda yuqori jangovar parvozlar ko'rsatkichiga ega 23 nafar ayol uchuvchilari eng oliy unvon – **"Sovet Ittifoqining Qahramoni"** unvoni bilan taqdirlangan [3]:

- gvardiya mayorlari – N.V.Popova (852 ta jangovar parvozlarni bajargan, urush boshlanishida Donetsk harbiy aviatsiya oliygohi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahriga evakuatsiya qilingan va oliygoh yo'riqchisi sifatida front aviatsiyasi uchun uchuvchi-qiruvchi mutaxassislarni tayyorlab bergan) va R.S.Gasheva (848 ta);

- gvardiya kapitanlari – M.V.Smironova (950 ta), M.P.Chechneva (810 ta), L.N.Rozanova (793 ta), Ye.A.Nikulina (760 ta), O.A.Sanfirova (630 ta);

- gvardiya katta leytenantlari – I.F.Sebrova (1004 ta), N.F.Meklin (980 ta), Ye.A.Jigulenko (968 ta), R.Ye.Arosova (960 ta), A.F.Xudyakova (926 ta), N.Z.Ulyanenko (915 ta), Ye.V.Ryabova (890 ta), P.V.Gelman (860 ta), V.L.Belik (813 ta), N.M.Raspopova (805 ta), Ye.B.Pasko (790 ta), M.G.Sirtlanova (780 ta), Z.I.Parfenova (680 ta), Ye.M.Rudneva (645 ta), T.P.Makarova (628 ta);

- gvardiya leytenanti Ye.I.Nosal (354 ta).

Shuningdek, 1995-yilda polkning 2 nafar shturman ayollari **"Rossiya Qahramoni"** unvoniga muyassar bo'lgan – gvardiya katta leytenantlari T.N.Sumarokova (725 ta jangovar parvozlar) va A.F.Akimova (680 ta), 250 dan ortiq qizlar esa bir qator orden va medallar bilan taqdirlangan – gvardiya mayori V.I.Tixomirova (1-toifadagi harbiy uchuvchi), gvardiya katta leytenanti Ye.I.Zelenko, gvardiya leytenanti R.Prudnikova (katta texnik) va boshqalar.

Afsuski, urushda g'alabaga erishish yo'lida olib borilgan harakatlar ortidan yo'qotishlar ham qayd etilgan. Xususan, dushman zarbasi oqibatida 588-TEBAPning 30 ta samolyotlari yo'q qilingan va 32 nafar uchuvchi qizlari qahramonlarcha halok bo'lgan. O'z navbatida, polk qizlari bir-biriga sadoqatli va do'stona munosabatda bo'lishganligi sababli urush tugaganidan keyin ham jangda halok bo'lgan safdosh dugonalariga alohida hurmat ko'rsatib, ularning samolyotlari qulab tushgan joylarda polk komissari Ya.R.Yevdokiya rahbarligida qabrlarni qidirish ishlarini amalga oshirishgan [6].

#### **Xulosa:**

Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoning boshqa mamlakatlari harbiy bo'linmalarda ham uchuvchi ayollar xizmat o'tagan. Xususan, AQShda WASP (Women Airforce Service Pilots) harbiylashtirilgan tashkilotda 1100 ga yaqin fuqaro uchuvchi ayollar bo'lib, ular erkaklarning o'rniga samolyotlarni zavoddan bazaga yetkazish bilan shug'ullangan [11].

Buyuk Britaniyada esa ATA – Air Transport Auxiliary fuqaro tashkilotida uchuvchi ayollar zavoddan yangi samolyotlarni hamda ta'mirlash bazalaridan ta'mirdan chiqqan va zarar ko'rgan harbiy samolyotlarni chiqarib Qirollik Harbiy havo kuchlari aerodromlariga yetkazib berishgan [11].

Biroq, yuqoridagi bo'linmalardagi ayollar harbiy xizmatchilar hisoblanmagan va jangovar mukofotlar bilan taqdirlanmagan. Sovet Ittifoqining "Tungi jodugarlar" bo'linmasidagi ayollar esa ofitserlik unvonidagi harbiy xizmatchi ayollar bo'lib, ular bevosita janglarda ishtirok etgan va mustaqil hamda guruh tarkibida turli jangovar vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarishgan.

Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushida ko'p sonli sovet ayollarining faol ishtiroki – jahon tarixida o'ziga xos fenomen bo'lib, Germaniya yoki boshqa ittifoqdosh davlatlarda bunchalik ko'p sonli ayol uchuvchilar havo janglarida qatnashmagan va harbiy mutaxassislikni o'zlashtirmagan.

"Tungi jodugarlar" tarixi – bu yuksak mahorat, mardlik, matonat va vatanparvarlik ruhi bilan to'yingan jasoratning yorqin namunasi hamda xotin-qizlarning tinchlik yo'lidagi jasorati,

qahramonligi, innovatsion taktikasi ramzidir. Garchi bu qahramon ayollar rus va boshqa millatga tegishli bo'lsa ham, ularning ko'rsatgan qahramonliklarini, umuman olganda Ikkinchi jahon urushi tarixini har bir inson o'rganishi zarur va shu orqali tinchlik qadrini anglash, o'tmishdagi xatolarga yo'l qo'yimaslik, o'zining va jahon davlatlari tarixini bilish va xalq qahramonlarini unutmashligi kerak.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Аронова Р.Е. Ночные ведьмы. – Москва: Советская Россия, 1980. – С.28-33.
2. Карпова Е.П. Боевые подруги – знаменитые летчицы в Великой Отечественной Войны // Актуальные проблемы педагогики и психологии”, 2023. Т.4, № 6 (2), С.49-56.
3. Лактионова Л.М. Женские авиационные части в Великой Отечественной Войне 1941-1945 гг.: Историческое исследование. // Автореф. дисс. кандидата исторических наук. – Москва, 1999.
4. Москатов Г.К. О «Небесных тихоходах», ночных бомбардировщиках и кое о чем еще // Научный вестник оборонно-промышленного комплекса России, 2015. С.3-8.
5. Попов Н.С. История создания и жизнь женского авиационного полка «ночные ведьмы» / Н.С. Попов, А.В. Борисов // Воздушный щит Отечества (к 110-летию военно-воздушных сил России): Сборник материалов межвузовской научно-практической конференции, Краснодар, 28 апреля 2022 года. С.87-90.
6. Слезкина Ю.А. Женщины на войне: Ночные ведьмы / Ю.А.Слезкина, А.М.Ягодкина // Вторая мировая война в лицах и документах: проблемы развития права и государства: Материалы межвузовской студенческой научной конференции, Москва, 27–28 апреля 2021 года. С.254-261.
7. Чечнева М.П. Боевые подруги мои. – Москва: ДОСААФ, 1975. – С.56-61.

Internet manbalari:

8. <https://образывойны.рф>
9. <https://www.vedomosti.ru>
10. <https://scientificrussia.ru>
11. <https://ru.wikipedia.org>
12. <https://mpgu.su>
13. <https://lib-lg.com>

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000